

BUYUK IMOM ABU HANIFA (ROHIMAHULLOH)NING USTOZLARI

Abdujabbor Tashpulatov

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti o'qituvchisi

Tarixga oid manbalarda Abu Hanifa (rohimahulloh)ning hayotiga tegishli ma'lumotlar yetarlicha yoritilgan. Tabaqot va tarojim haqidagi kitoblarning hech biri Allomaning tarjimai holidan xoli emas. Bundan tashqari uning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlab yozilgan mustaqil asarlarni ko'plab topish mumkin. Qisqasini aytganda, Abu Hanifa (rohimahulloh)ga berilgan ta'rif va tavsiflar allomaning hayotidagi barcha jabhalarini qamrab olgan.

Kufa shahri 17-hijriy yili barpo qilinganidan boshlab, sahobiylar shahri bo'lgan. Hazrati Umar (roziyallohu anhu) Qur'oni karimni va fiqhni o'rgatish uchun Kufa ahliga Ibn Ummu Abd nomi bilan mashhur bo'lgan, islomga oltinchi bo'lib kirgan sahobiy Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhuni, o'zi unga muhtoj bo'lsalar ham, muallim qilib yuborgan. Ibn Mas'ud (roziyallohu anhu) haqida Rasululloh (alayhissalom): "Kim Qur'oni karimni nozil bo'lgan paytida qanday bo'lsa shundayligicha qiroat qilmoqchi bo'lsa, Ibn Ummu Abddek qiroat qilsin", – dedilar. U kishining madrasasida juda ko'p qorilar yetishib chiqdi. Hatto Hazrati Ali (roziyallohu anhu) Kufa ahli faqihlarining ko'pligidan ajablanib, Ibn Mas'udga: "Bu qishloqni ilm va fiqhga to'ldirib yuboribsizku", – degan. Hazrat Ali (roziyallohu anhu) boshchiligida qori sahobiylarning Kufaga ko'chib borganlaridan keyin esa shahar ahliga ilm berishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Natijada Kufa shahri islom shaharlari ichida faqihlar, muhaddislar, uluml Qur'on hamda arab lug'ati olimlarining ko'pligi borasida tengsiz bir shaharga aylandi. Iroqning boshqa shaharlarida yashamay, faqat Kufaning o'zida yashagan sahobiylar sonini Ijliy bir ming besh yuztaga yetkazgan.

Abu Hanifa (rohimahulloh) ilm yo'lida Basraga o'n martalab borth, Madinai munavvarani ham o'n martalab ziyorat qilgan, Makkai mukarramada esa 130-hijriy yildan boshlab 136-yilgacha olti yil mobaynida muqim yashagan. Ushbu ikki muborak shaharlarda ularning ulamolari bilan uchrashgan. Hatto, u yerga tashrif buyurgan boshqa shahar ulamolari bilan ham ko'rishgan. Makkai mukarramada Ibn Abbos (roziyallohu anhu)ning shogirdlaridan Ibn Abbosning ilmlarini, Madinai munavvarada Hazrati Umar (roziyallohu anhu)ning shogirdlaridan Hazrati Umarning ilmlarini olgan. Shuningdek Ahli Bayt imomlaridan ham ko'p ilmlarni istifoda etgan³².

Tarojim va manoqib kitoblarida bu boradagi ma'lumotlar yetarlicha. Makkiy o'zining manoqibida Abu Hanifa (rohimahulloh) ustozlarining nomlarini abjad harflari tartibida o'n yettita sahifada keltirib o'tgan. Ularning adadi uch mingta bo'lib, mingtasi porlab turgan yulduz kabidirlar. Ibn Hajar Haytamiy (rohimahulloh)ning fikricha, uning tobein ustozlarini adadi to'rt mingta atrofida bo'lgan³³. Makkiy va Bazzoziylar

³² Sibo'iy Mustafo. Sunna va makanatuha fiy tashriy'il islamiy. – Qohira: Dorul varroq, 2000. – B. 317. (Bundan keyin: Sibo'iy. Sunna)

³³ Haytamiy Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Ali ibn Hajar. Xoyrotul hison fiy manoqibil imam Abi Hanifa Nu'mon. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiya, 1407/1986. – B. 23.

Abu Hanifa (rohimahulloh) sahobalardan ham ilm olganini aytganlar. Abu Hanifaning tobeinlardan ilm olgani haqida hech qanday shubha yo'q. U kishi juda ko'p ustozlardan ilm o'rgangan. Shulardan ba'zilar quyidagilar:

1. Omir ibn Sharohil Sha'biy (vaf. 103/721). Amirul mu'minin Umar (roziyallohu anhu) xalifaligining oltinchi yilida tavallud topgan. Sahobalardan besh yuztasi bilan uchrashgan³⁴.

2. Abu Muhammad Ato ibn Abi Raboh Aslam (vaf. 114/732). Ibn Abbos (roziyallohu anhu)dan keyin Makkada fatvo ishlarida unga murojaat qilinar edi. Hadis rivoyatida ishonchli va faqih tobeinlardan sanaladi. Xatib Bag'dodiy (rohimahulloh) "Axbor Abi Hanifa va as'habihi" nomli kitobida Horis ibn Abdurrahmongacha bo'lgan sanad bilan aytadi: "Horis ibn Abdurrahmon dedi: "biz Atoning huzurida ba'zimiz ba'zimizni ortida bo'lar edik. Agar Abu Hanifa kelsa, u uchun joyni bemalol qilardi va o'ziga yaqinroq qo'yardi"³⁵. Abu Hanifa (rohimahulloh) Ato ibn Abi Raboh (rohimahulloh) to'g'risida "Atodan afzalini ko'rmadim" degan³⁶.

3. Abu Ismoil Hammod ibn Abu Sulaymon Muslim Kufiy (vaf. 120/738)³⁷. U Iroq faqihi degan nom olgan. Sahoba Anas ibn Molik, Hasan Basriy (roziyallohu anhum) va shu kabi taniqli kishilardan rivoyat qilgan³⁸. U fiqh ilmini o'z davrida Kufa faqihi Ibrohim Naxa'iy (rohimahulloh)dan (vaf. 95/713) olgan.

Abu Hanifa ustozlari Hammod ibn Abu Sulaymon (rohimahulloh) vafot etguncha o'n sakkiz yil davomida undan fiqh ilmidan saboq olgan.

4. Zayd ibn Ali ibn Husayn Zaynulobidin (rohimahulloh). U kishi o'z davrida qiroat ilmi va Qur'on ilmlari, fiqh va aqoid ilmlarida ko'zga ko'ringan alloma bo'lgan. Abu Hanifa (rohimahulloh) undan ikki yil dars olgan.

5. Ja'far Sodiq (rohimahulloh). U Abu Hanifa bilan tengdosh bo'lgan. Abu Hanifa Ja'far Sodiq haqida: "Allohga qasamki, Ja'far ibn Muhammad Sodiqdek faqihni ko'rmaganman", - deb uning ilmiga yuksak baho bergan.

6. Abdulloh ibn Hasan ibn Hasan (rohimahulloh). Abu Hanifa (rohimahulloh) bu kishiga shogird tushganini Makkiy, Ibn Bazzoziy va boshqa olimlar o'zlarining Manaqiblarida ta'kidlaganlar. Abdulloh ibn Hasan (rohimahulloh) hadis va boshqa ilmlarda yetakchi olimlardan hisoblangan.

7. Muhammad Boqir ibn Zaynulobidin (rohimahulloh). Bu kishi chuqur ilmga ega bo'lgani uchun "Boqir" laqabini olgan³⁹.

Abu Hanifa (rohimahulloh) yana Atiya Avfiy, Abdurahmon ibn Hurmuz, A'roj, Abdulloh ibn Abbos (roziyallohu anhu)ning shogirdi Ikrima, Abdulloh ibn Umar (roziyallohu anhu)ning shogirdi Nofi', Adiy ibn Sobit, Amr ibn Dinor, Salama ibn

³⁴ Abdurrazzoq ibn Hasan ibn Ibrohim Baytor. Hulyal bashar fiy tarixil qornis salisi ashara. – Damashq. Matbatut taraqqiy. 1383, – B. 328.

³⁵ Solihiy Muhammad ibn Yusuf ibn Aliy. Uqudul jumon fiy manaqib Abi Hanifa Nu'mon. – Haydarobod: Matbaatul maorifish sharqiyya, 1394/1974. – B. 205. Soymariy Abu Abdulloh Husayn ibn Aliy ibn Muhammad. Axbor Abi Hanifa va as'hobihi. – Haydarobod: Matbaatul maorifish sharqiyya, 1394/1974. – B. 185. Nu'moniy Abdurrahshid. Makanatul imam Abi Hanifa fiyl hadis. – Bayrut: Dorul bashoir, 1417/1996. – B. 10, 11, 12.

³⁶ Zahabiy Hofiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon. Manaqib Abi Hanifa va sohibayhi Abi Yusuf va Muhammad ibn Hasan. – Haydarobod: Lajna ihyo'ul maorifin nu'moniyya, (nashr sanasi noma'lum). – B. 19. (Bundan keyin: Zahabiy. Manaqib Abi Hanifa)

³⁷ Tamimiy Taqiyyuddin ibn Abdulqodir. Tabaqotus saniyya fiy tarajimil hanafiyya. – Riyoz: Dorur Rifo'iy 1408/1987. – B. 183.

³⁸ Zahabiy. Tarixul islam va vafayotul mashohir val a'yon. – Bayrut: Dorul kutubil arabiy, 1410/1989. – B. 231. Asqaloniy Ibn Hajar Ahmad ibn Aliy ibn Muhammad. Tahzibut tahzib. – Bayrut: Dorul ma'rifa, 1417/1996. – B. 13.

³⁹ Суннийлик таълимоти. Оқилов С., Примов С., Гиёсов А. – Т.: "Тошкент ислом университети", 2012. – Б..

Kuhayl, Qatoda ibn Dioma, Abu Zubayr, Mansur, Abu Ja'far Muhammad ibn Ali ibn Husayn (rohimahumulloh) va shu kabi mashhur tobeinlardan hadis eshitgan⁴⁰.

Xulosa qilib aytganda, Abu Hanifa (rohimahulloh) ning ilmi yuzaki, havoyi va o'zicha o'ylab chiqarilgan xulosalar bo'lmagan. Balki, u zot har bir soha bo'yicha o'z davrining mashhur ulamolaridan ilm olgan. Ularning ilmi bevosita Rasululloh (alayhissalom)ga taqalgan. Shuning uchun Ahli sunna ulamolari fiqh va aqida bo'yicha u kishining tutgan yo'lini mahkam ushlagan.

⁴⁰ Zahabiy. Manaqib Abi Hanifa – B. 19.